



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## XX ASR JAHON ADABIYOTIDA HEMINGUEY FENOMENI: “CHOL VA DENGIZ” ASARINING O'RNI

Arslonova Madinabonu Oybek qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi  
[madinabonuarslonova096@gmail.com](mailto:madinabonuarslonova096@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183383>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola XX asrda yaratilgan tenggi yo'q asarlardan biri bo'lgan amerikalik taniqli yozuvchi Ernest Heminguey qalamiga mansub “Chol va dengiz” asarining badiiy talqiniga bag'ishlangan. Hamda bunda Hemingueyning yozuv uslubi, syujet dinamikasi va asarning falsafiy mohiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** XX asr jahon adabiyoti, Nobel mukofoti, inson va tabiat, yolg'izlik va umid, dengiz falsafasi.

**Annotation:** This article is dedicated to the literary analysis the precious novel “The Old Man and the Sea”, which is written by famous American writer Ernest Hemingway in XX century. Furthermore, it highlights Hemingway's writing style, plot dynamics and the philosophical essence of the novel.

**Key words:** XX century literature, Nobel prize, human and nature, loneliness and hope, philosophy of the sea.

Amerika va butun dunyo adabiyotida o'z o'rniga ega asarlari bilan millionlab o'quvchilarini topgan Ernest Hemingueyning mashhur asari “Chol va dengiz” 1952-yil 1-sentyabrda ilk marta nashr qilindi. Ushbu durdona asar inson matonati va sabrini aks ettiradi. Yozuvchi ushbu asarini Bagama orollarida 51 yoshida yozgan edi. Kasallik yozuvchi hayotiga xavf solib turganda ham u ushbu asari orqali betakror obrazlarni yaratdi. Asar ikki oy ichida davomida tugallanadi. Qahramonlar oddiy obrazlar orqali tasvirlangan bo'lsa ham, zamirida hayot haqiqatining chizgilari bor.

Hemingueyning asarlari inson va tabiat, kurash va qahramonlik, ma'naviy kuch va yolg'izlik, muvaffaqiyatsizligining ulug'vorligi bilan bog'liqdir. “Chol va dengiz” asari yozuvchining shu mavzuda yozilgan asarlarining eng cho'qqisi hisoblanadi. Shuning uchun ham har birimiz uning asarlaridan o'zimizni topa olamiz. Asarda markaziy mavzu muvaffaqiyatsizlik bo'lsa ham, u omadsizlikka uchraganiga qaramay, oxirigacha kurashishni davom etadi. Bu bo'lsa o'z navbatida insonga ulug'vorlik bag'ishlaydi.

Heminguey “Men bu asarni oddiy bola, oddiy chol, oddiy dengiz haqida yozganman” deydi. Shuningdek, yozuvchining voqealarni yoritishi, qahramonlarni gavalantirishi, qahramonlarni so'zi orqali psixik holatlarini namoyon qilishi, odamzodning insoniy fazilatlarini oddiy obrazlar orqali ochib berishi katta filosofik mazmun ekanligini guvohi bo'lamiz. Asarda, avvalo, inson hamisha suyanadigan



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

ishonch tuyg'usi va albatta, umid haqida so'z boradi. Asar bosh qahramonda ham tajribasiga suyanib yashayotgan, ishonchini yo'qotib qo'ymaslikka harakat qilayotgan obrazni ko'rishimiz mumkin. Asarda yana shunday mohirlik bilan 3-hikoyachidan foydalanilganki, biz uning tashqi xatti-harakatlari bilan birga ichki o'y-xayollarini ham ko'ra olamiz. Va bunda cholning yillar mobaynida to'plagan tajribasi hamda bilimini yaqqol sezamiz. Yozuvchining uslubiga keladigan bo'lsak, o'z zamondoshlaridan farqli ravishda sodda, lo'nda ammo hayotiy - realistik uslubda yozilgan. Ko'pchilik buni "aysberg nazariyasi" deya talqin qiladilar, ya'ni oddiygina yozish bilan ustida minimal detallar, tagida esa chuqurroq ma'nolar yashirindir ushbu asarda. Bundan tashqari muallif qahramonning o'tmishi, boshidan o'tkazgan kunlarini bir-bir eslatib ko'z o'ngimizda uni yanada yuqoriga ko'taradi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, Heminguey murakkab sintaksis, qiyin gaplar bilan emas, yuqorida aytilganidek sodda tilda tushuntirgan, va balki aynan shu asarga mashhurlikka erishishiga sabab bo'lgan deb ayta olamiz.

Keksa baliqchi Santyago hayoti manzarasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asar boshidanoq uning omadi biroz yurishmay turganini bilamiz. U 84 kun davomida dengizga chiqqan, ammo hech narsa ovlay olmagan edi. Ammo u insoniyatga xos bo'lgan tuyg'usini ya'ni umidini yo'qotmaydi va 85-kuni yolg'iz o'zi ochiq dengizga chiqishga qaror qiladi. Aynan dengizda inson va tabiat o'rtasida keskin jang boshlanadi. Avvaliga ovlamoqchi bo'lgan baliq - marlinni ilintirish uchun jon-jahdi bilan harakat qilsa keyin uni uyiga omon eltish uchun akulalar bilan jang boshlaydi. Bunda ham inson irodasi, inson matonati g'olib kelib baliqning qolgan oz qismini bo'lsa-da uyiga yetkazadi. Ushbu manzaralarda Santyagoning qanchalar u baliqni ovlashga jazm qilgach, buning uchun Xudoga qanchalar iltijo qilgani u buni shunchalar istaganini ko'rsatadi.

Hemingueyning o'zi shunday degan ekan: "Insonni o'ldirish, yo'q qilish mumkin, ammo uni mag'lub qilib bo'lmaydi".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asar insonning o'z mehnatiga bo'lgan ishtiyoqi va har qanday holatda ham umidini yo'qotmasligi haqida hikoya qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [www.study.com](http://www.study.com)
2. [www.core.ac.uk](http://www.core.ac.uk)
3. [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)
4. A Thematic Study of Ernest Hemingway's The Old Man and the Sea. Sanjo Oedoja. October 2020.